

NUTQ VA NOTIQLIK SAN‘ATI

Bahodirova Nigora

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada nutq va notiqlikni inson hayotidagi o‘rni, unga qo‘yilgan me‘yoriy talablar hamda uni grammatik jihatdan muvofiq kelishi tushuntirilgan.

Kalit so‘zlar

xususiyatlar, mantiqiylik, nutq madaniyati, grammatik me‘yor, ta‘sirchanlik, to‘g‘rilik.

Ma‘naviyati va madaniyati shakllangan xalqlar uchun notiqlik san‘ati inson faoliyatida muhim omillardan sanalgan. Asosiy e‘tiborni nutqning yaxshi bo‘lishiga qaratgan o‘z nazoratchilari bo‘lgan. Agar nutq ma‘lum va‘ziyat va shart- sharoitlarda amalga oshirilishi nazarda tutilsa, bunda joy, vaqt, mavzu va muloqot jarayonining maqsadi kabi omillar katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Aytilganlarni qisqacha umumlashtiradigan bo‘lsak, nutqning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni belgilash lozim bo‘ladi; to‘g‘rilik, aniqlik, mantiqiylik, ta‘sirchanlik, obrazlilik, tushunarlik va maqsadga muvofiqlik.

Nutqning to‘g‘ri bo‘lishi uning bosh kommunikativ xususiyati hisoblanadi. Nutqning to‘g‘ri buzilgan bo‘lishi tomonlarning- so‘zlovchi va tinglovchilarning, yozuvchi va o‘quvchilarning bir birlarini tez va oson tushunishlarini ta‘minlaydi. Agar nutq to‘g‘ri bo‘lmasa, u aniq ham, maqsadga muvofiq ham, mantiqiy ham bo‘lmaydi.

“To‘g‘rilik deganda,-deb yozadi V.G.Kostomarov,- nutq madaniyatining zarur va birinchi sharti sifatida adabiy tilning ma‘lum paytda qabul qilingan me‘yorning qat‘iy va aniq muvofiq kelishining, aniq talaffuz, orfografik lug‘at va grammatik me‘yorlarning egallashiini tushuntirish lozim bo‘ladi”. Demak, nutqning to‘g‘ri bo‘lishi dastlab uning adabiy til me‘yorlariga muvofiq kelishi bilan o‘lchanadi. Nutqning to‘g‘ri bo‘lishi asosan ikki me‘yorga- urg‘u va grammatik me‘yorga amal qilishni taqozo qiladi. So‘zlardagi ayrim bo‘g‘inlarning zarb bilan talaffuz qilinishi ya‘ni ularga urg‘uning tushishi hammam tillarda ham bir xil xususiyatga emas. Nutq so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirgan matnning tashqi ko‘rinishi bo‘lib, u faqatgina tilga bog‘liq hodisa sanalmasdan, u ham ruhiy, ham estetik hodisadir. Shuning uchun ham unga namunaviy nutq sifatida baho berilganda tinglovchi va kitobxoniga ko‘zda tutilgan maqsadning to‘liq borib yetishi, ularga ma‘lum ta‘sir o‘tkazishi nazarda tutilgan, hamda bu vazifalarning amalga oshirilishida nutq oldiga ayrim talablar qo‘yiladi. Bu talablar grammatik jihatdan nutqning to‘g‘ri bo‘lishini, so‘zlar ko‘zlangan ma‘noni aniq aks ettirishi, yorqin va ta‘sirchan bo‘lishini taqozo qiladi.

XV-XVI asr O‘rta Osiyo ma‘naviyatining yirik vakili hisoblangan Mavlono Husayn Voiz Koshifiy ham, “Futuvvatnomayi sultoniy” asarining, “Tariqat ahlining odobi” deb nomlangan asarining beshinchi bobida nutqning fazilatlari haqida muhim fikrlarni ilgari surgan. Nutq qurilishining grammatik shakllarini farqlay olish so‘zlarni mazmuniy bog‘lanishiga qarab joylashtirish grammatik me‘yorlarni belgilar ekan, nutqning to‘g‘ri ifodalanishi uchun gap tuzish qoidalarini o‘zlashtirish, o‘zak va qo‘shimchalar o‘rtasidagi

munosabatlarni ega , kesim mosligini, ikkinchi darajali bo‘laklarning ularga bog‘anish yo‘llarini yaxshi anglash lozm bo‘ladi. Masalan; alifbomizda qo‘shimcha harflar kiritish yoki chiqarish bilan nutq madaniyatimizni oshirish uchun imkoniyat yaratilmay , balki nutq madaniyatimizni takomillashuvida chalkashlik sodir bo‘lishi mumkin emasmi

Ona tlimiz xazinasidan kerakli grammatik shakllarini tanlsh va ularni joy joyida ishlatish, nutqni to‘gri tuzishga erishish , har bir til birligini o‘rniga talaffu qilish nutq madaniyatining asosiy talablaridan biri sanaladi.

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR:

- 1.Ortiqov A. “Nutq madaniyati va notiqlik san’ati”. - T.,2002.
- 2.Bekmirzayev N. “Notiqlik san’ati asoslari”. - T.,2008